



**"KELAJAK O'QITUVCHISI-KELAJAK BUNYODKORI"**  
mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami



**"УЧИТЕЛЬ БУДУЩЕГО – СОЗИДАТЕЛЬ БУДУЩЕГО"**  
Сборник материалов II Международной научно-практической  
конференции



**"TEACHER OF THE FUTURE – CREATOR OF THE FUTURE"**  
Proceedings of the II International scientific and practical conference

**28.II.2024**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**“KELAJAK O'QITUVCHISI-KELAJAK BUNYODKORI”**  
*mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami*



**“УЧИТЕЛЬ БУДУЩЕГО - СОЗИДАТЕЛЬ БУДУЩЕГО”**  
*Сборник материалов II Международной научно-практической конференции*



**“TEACHER OF THE FUTURE - CREATOR OF THE FUTURE”**  
*Proceedings of the II International Scientific-Practical Conference*



**NAMANGAN 2024**



**Bosh muharrir:** Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov

**Mas’ul muharrir:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor M.R.Qodirxonov

**Mas’ul muharrir o‘rinbosari:** Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i J.A.Yuldashev

## **T A H R I R H A Y ’A T I**

**Aniq va tabbiy fanlar:** akad. K.Tojibayev, akad. A.To‘rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova.

**Texnika fanlari:** t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. A.Abdunazarov.

**Ijtimoiy gumanitar fanlar:** s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

**Pedagogika fanlari:** p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O‘M.Asqarova. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, p.f.n., dots. G.Nafasov, PhD. M.Asranboyeva, PhD. B.J.Urinov.

**Filologiya fanlari:** fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev

**Texnik muharrir: A. O‘rmonjonov**

**Tahririyat manzili:** Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

**Pochta indeksi:** 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

**Email:** [Info@namspi.uz](mailto:Info@namspi.uz)

“*Kelajak o‘qituvchisi - kelajak bunyodkori*” mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-dekabr 2024-yildagi 12-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 12).

**Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.**



qoralamalar bajarish texnikalari //Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations.–2023.

11. Boltaboyev A. O'QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARNI BAJARISHDA TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 7. – C. 553-559.

12. Boltaboyev A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MEHANIZMI VA USULLARI //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 140-146.

13. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – Т. 1. – №. 01.

## **YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ULUG' AJDODLARIMIZ MEROSIDAN FOYDALANISH METODIKASI (HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI MISOLIDA)**

*Norov Nodir Jo'rayevich*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Bugungi globallashuv zamonida yoshlarning ma'naviyati va axloqiy tarbiyasini sofligicha saqlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishning samarali usullaridan biri bu – milliy tarbiya o'zagi bo'lgan ajdodlarimizning tarbiya usuliga qaytishdir. Azal-azaldan yurtimizda milliy tarbiya maktablarimiz shakllangan bo'lib, ulardan foydalanish jarayonida salmoqli natijlarga erishilgan. Xuddi shunday maktablardan biri bu Husayn Voiz Koshifiyning maktabidir. Quyida siz, Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy-falsafiy qarashlari haqida qisqacha tanishasiz.

**Kalit so'zlar:** axloq, barkamol avlod, Axloqi Muhsiniy, Futtavotnomai Sultoniy.

**Abstract.** In today's era of globalization, keeping the spirituality and moral education of young people pure is becoming one of the urgent problems. One of



the effective ways to eliminate this problem is to return to the education method of our ancestors, which is the core of national education. National education schools have been formed in our country since time immemorial, and significant results have been achieved during their use. One such school is the school of Husain Waiz Koshifi. Below, you will briefly learn about the moral and philosophical views of Hossein Vaiz Koshifi.

**Key words:** ethics, perfect generation, Akhlaqi Muhsini, Futtavatnomai Sultani.

Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, a'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratl ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi[1].

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalari jadidlar va ularning ildizlariga qaytishda deb bilamiz.

Zamonaviy dunyoda har bir mamlakat o'zining mustahkam poydevoriga ega bo'lishi o'z xalqini milliy an'analari va qadriyatlari asosida jipslashtira olishi, ayniqsa yosh avlodlarda milliy-tarixiy qadriyatlар milliy iftixon tuyg'usini shakllantirishiga ko'p jixatdan bog'liq. Xususan, yoshlar tarbiyasida Buyuk mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy falsafiy merosidan ham o'rinci foydalanish imkoniyatlarini aniqlab olish hamda amalda qo'llash lozim. Tadqiqot davomida hozirgi murakkab global turfa o'zgarishlar sharoitida yoshlarimizni turli ma'naviy tahdidlardan himoya qilish va ularda milliy o'zligini anglash tuyg'usini shakllantirishda hamda yuksak ma'naviyatli barkamol avlod etib tarbiyalashda Husayn Voiz Koshifiyning axloqqa asoslangan ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi o'rganilgan.

Koshifiy o'z asarlarida ijtimoiy hayot, undagi axloqiy tarbiyaviy masalalar davlatni boshqarishda podshoh va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalib, "podshoh har kishinikim tarbiyating xoxish qilsa, to uning ahvolini necha bor imtihon qilmay, xulq-atvori haqiqatini tamom bilmay, tarbiyat nazari bilan unga boqsa...! Bunda noloyiq kishini necha vaqt tarbiyat qilib, ahvoli va axloqidan voqif bo'lib, sungra uni nazaridan chiqarib tashlash ancha mushkul ishdir. Chunki kishini birdan ko'tarib yana birdan tashlash, saltanat haybatiga ziyon yetkazadi".

No‘siravon Buzurjmehrdan so‘radi: “Kim tarbiya qilishga loyiq”. Donishmand javob berdi: “Shunday kishiga tarbiya berilsinki, u odoblilik yoki nasablik bo‘lsin. Va har kishining zoti past bo‘lsa, “Har narsa o‘z asliga tortganidek, har narsa o‘z asliga qaytadi”, hukmi bo‘yicha u o‘z zotiga tortadi”. Aytishlaricha, Zaki degan kishi bo‘lib, ulug‘ kishilarning avlodidan odobi ham komil edi. Rumlik bir No‘soba ismli kanizakni sotib oladi.

U juda badxo‘y va g‘oyat bahonachi edi. U Zakidan bir o‘g‘il ko‘rdi. Bir kuni hakimlardan biri Zaki suhbatida edi, u erga farzandi ham keldi. Zaki farzandiga bir ish buyurdi, u darhol o‘rnidan turib ishga ravona bo‘ldi. Necha qadam yurib, orqasiga qaytib kelib, yana majlisga o‘tirdi. Hozir bo‘lganlar taajjub bo‘ldilar va aytdilarki: “Buning ilgari ishni bajarishga kirishgani boyisi nimadan edi va keyingi bedilligiga nima sabab bo‘ldi”. Bu borada Firdavsiy shunday yozadi:

Daraxtning achchig‘dir mag‘zi aning,  
Ani garchi jannatga eltib tiking.  
Behishti ariqidin sug‘ormoq mahal,  
Qo‘ying ildizi uzra ichra shiru asal.  
Baoxirki vaqt vaqti qusuli etar  
O‘shal achchiq meva izhor etar.

Mavlono Firdavsiyning ushbu fikridan shunday xulosa kelishi mumkinki, har qanday tarbiyaning zoxiriy va botiniy jixatlari mavjud bo‘lib, har qanday holatda ham qachondir o‘zini baribir namoyon qiladi. Mulozimlar tarbiyatida yana bir fikr shuki, uni quyidagicha izohlash mumkin bo‘ladi. Bir kishiga ikki amal berilmasin. Balki bir kishiga unga mansub ish tayin qilinsin. Toki mulozimlar hammasi birday umidvor bo‘lsin. Va ikki kishini ham bir ishga tayin qilinmasin. Chunki, sheriklik xalaqit berib, ish murodi soxta bo‘lib mukammal bo‘lmaydi. Odatda tarbiya natijasida jamiyat farog‘ati yuzaga keladi. Shuning uchun bu xususida uch kalima so‘z va bir fikr yozildi. Eng birinchisi farzand (shahzodalar) tarbiyasidir. “Mamlakat xazinasi”da aytilganki, farzand haqning omonatidir. Ota-onada oldida mashhar vaqtida bu omonat haqqi talab qilinadi. Bu omonat go‘yoki oyina – butun borliq ko‘zgusi, uning avvalidir. Haqiqat javohiri uni nimaga xohlasa, o‘sanga moyil qilish mumkin. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, har qanday farzandga ona suti berilsa va unga chiroyli nom tanlansa tarbiyasidagi o‘ziga xos o‘zgarishlarni shunda ko‘rish mumkin bo‘ladi. Asarda yozilishicha qadimda farzand ona suti bilan boqilsa, uning tabiatini o‘zgaruvchan bo‘ladi va inson pok din, yaxshi xulq bilan uning xizmatini qiladi.

Sharq xalqlari orasida axloq falsafasiga oid mukammal asar yaratgan olimlardan biri Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy-falsafiy dunyoqarashining



shakllanishida juda ko'p ta'limotlar hamda falsafiy-axloqiy qarashlarning ta'siri katta bo'lgan. Mutafakkir ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etgan omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Antik davr yunon mutafakkirlarining ta'limotlari;

2) Islom ta'limotining ta'siri;

3) Musulmon Sharq mutafakkirlarining ilmiy meroslari. Islom dinining yirik nazariyotchisi, Qur'onga tafsir yozgan ulamo, tasavvuf ta'limotining nazariy va amaliy jihatlarini asarlarida yoritib bergen tariqat vakili sifatida Husayn Voiz Koshifiy dunyoqarashida Islom ta'limoti, xususan, xanafiya mazhabining ta'siri katta bo'lgan. Kalom ilmida moturidiya aqidasiga tayangan.

Husayn Voiz Koshifiy fiqhiy va aqidaviy masalalarni mukammal egallagan yirik diniy ulamo bo'lgan. Diniy-axloqiy mavzular bo'yicha va'zlar aytadigan mohir notiq sifatida Hirot shahrining eng mashhur voizi bo'lgan. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan bayon etilayotgan har bir axloqiy fazilat dastlab Qur'on oyatlari asosida sharhlanadi, undan keyin hadislardan mavzuga oid namunalar keltiriladi. Husayn Voiz Koshifiy tomonidan bayon etilgan axloqiy fazilatlarni Qur'on oyatlari va hadis namunalari bilan asoslanishi o'quvchida katta qiziqish va ishonch uyg'otadi. Allomaning Qur'onga yozgan tafsiri "Tafsiri Husayniy" xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Qur'onga har qanday ulamo ham tafsir yoza olmaydi. Qur'onga tafsir yozish uchun Islom ilohiyoti bo'yicha mukammal ilmga ega bo'lgan olim bo'lish kerak. Shu jihatdan, Husayn Voiz Koshifiy Islom ilohiyotiga oid barcha bilimlarni mukammal egallagan ulamo bo'lgan. Allomaning ilmiy-falsafiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etgan omillar orasida musulmon Sharq mutafakkirlariniing ilmiy merosi katta o'rinn egallaydi. Ayniqsa, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiylarning ijodiy merosi alloma dunyoqarashining shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari Husayn Voiz Koshifiy o'z asarlarida Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Xoja Hofiz nazmiga tez-tez murojaat qilib turadi. Shuningdek, asarlarida tasavvuf tariqatining yirik vakillari Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubrolarning fikrlaridan keng foydalanadi. Imom G'azzoliy, Umar Xayyom, Nizomulmulk xususida ham ma'lumotlarni berib o'tadi. Husayn Voiz Koshifiy o'z davridagi barcha ilmlarni puxta egallab, ularga oid asarlar yozgan qomusiy olim edi. She'r san'ati, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, notiqlik san'atiga oid asarlar yozgan allomaning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Zamahshariy, Alisher Navoiy va shu kabi mutafakkirlarning ta'siri katta bo'lgan. Bundan tashqari, badiiy asarlar, she'rlar, g'azallar yozishda mumtoz Sharq shoirlar va adiblarining ta'siri sezilarli albatta. Husayn Voiz Koshifiy kimyo, astronomiya, matematika va tibbiyotga oid asarlar

yozishda qadimgi yunon mutafakkirlari va Markaziy Osiyodagi birinchi Uyg‘onish davri qomusiy olimlarining asarlariga tayanadi. Shuningdek, tarix, davlat boshqaruviga oid asarlarini yozishda Nizomulmulk singari allomalarning, musiqa nazariyasiga oid asarlarini yozishda Forobiyidan boshlab Temuriylar saroyidagi barcha musiqashunos olimlarning ta’siri katta bo‘lgan. Xullas, fanlarning barcha sohalariga oid 200 dan ortiq asarlar yaratgan allomaning dunyoqarashini shakllanishida turli tuman ta’limotlar, qarashlar va nazariyalar asos bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur manbalardan Husayn Voiz Koshify o‘z qarashlarini bayon etishda unumli foydalanadi. Asarlarida axloqiy fazilatlarni bayon etishda juda ko‘plab manbalarni keltirib o‘tar ekan, aksariyat hollarda muallif emas, faqat asarni nomini qayd etib ketadi. Masalan, “Hikoyot us-solihin”, “Ro‘snoyinoma”, “Nasoih ul-mulk”, “Nigoriston”, “Hikmat”, “Javome’ul hikoyot”, “Siroj ulmuluk”, “Xuroson tarixi”, “Salohiy tarixi” kabi asarlar shular jumlasidandir. Husayn Voiz Koshify aksariyat hollarda asarlarning nomini keltirsa, ayrim holatlarda mualliflarni ham qayd etib o‘tadi, masalan, Ibn ul-Muqannanining “Odob” asari degan jumlalarni aytish mumkin. Husayn Voiz Koshify tarixiy manbalardan keng foydalanar ekan, hukmdor Afrosiyob va uning faoliyati, ibratli mulohazalardan bir necha bor misollar keltiradi. Bundan tashqari, Safforiylar, Tohiriyalar va Somoniylar hukmdorlari faoliyatidan ibratli hikoyalarni bayon etar ekan tarixiy xronologiyaga rioya qiladi. Umuman aytganda, Husayn Voiz Koshify musulmon Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy, tarixiy, axloqiy hamda diniy asarlari va ta’limotlarini mukammal o‘zlashtirgan bo‘lib, bu uning ko‘p qirrali sermazmun ilmiy faoliyatida katta ahamiyat kasb etgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy dunyoqarashida qadimgi yunon allomalarining ta’siri katta bo‘lgan. Ayniqsa, axloq falsafasida ratsionallik tamoyiliga amal qilishida antik davr yunon mutafakkirlarining ta’limotlari muhim o‘rin egallagan. Axloq falsafasida ratsionallik tamoyilining yuzaga kelishi xususida biroz to‘xtalib o‘tmochimiz. Kishilik jamiyatida axloq odobga oid qarashlar tarixi juda qadimiylar bo‘lib, bevosita Misr, Bobil, Hindiston va Xitoyda bir necha ming yillik tarixga ega. Ammo axloqiy bilimlarni muayyan tartibga solinib, bir tizimga keltirilishi va fan maqomini olishi miloddan oldingi IV asrda Yunonistonda amalga oshadi. Mazkur fanning nazariy asoslarini hamda muhim kategoriylarini falsafiy tahlil etib bergen mutafakkir Arastu hisoblanadi. U axloqshunoslikni mustaqil fan sifatida ajratib, uning predmeti va vazifalarini belgilab beradi. Arastu axloqshunoslikni amaliy falsafa sirasiga kiritib bu haqida shunday yozadi: “Etikaaxloq muammolari haqida gapirishdan avval, biz axloq nimaga ta’luqli ekanligini aniqlab olishimiz kerak. Gapning lo‘ndasini aytsak, axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan, ya’ni munosib bo‘lmagan odam faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas.

Munosib odam bo'lmoq fazilatlar egasi, fozil bo'lmoq demakdir. Zero, ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan odam axloqan fazilatli odam bo'lmog'i kerak. Xullas, etika, siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir". Shuning uchun Arastu axloqni amaliy falsafa ekanligiga alohida urg'u beradi.

Koshifiy amirlar tarbiyasiga to'xtalar ekan, "ular davlat ustuni va mamlakat asosidirlar. Shuning uchun ham ularning tarbiyatiga alohida etibor berib, har qanday mulkiy maslahat bo'yicha murosaga kelib diqqat bilan eshitib so'z aytishlari kerak bo'lgan". Ulardan keyingi o'rinda elchilar, lashkar va mulozimlar tarbiyati masalalaridir. Qadimda elchilarning xulqi va tarbiyasiga qarab o'sha mamlakatning podshohiga baho berilgan. Chunki davlat boshliqlari elchining ta'lim - tarbiyasi borasida alohida tayyorgarliklarini tashkil etganlar. Shuning uchun ham elchilar tayेrlangan va qisqa qilib aytganda ular podshohlarning yuzi bo'lgan.

Koshifiy Hirot madrasalarida tolibi ilmlarga dars bergan. Xuroson shaharlarida tarbiya, axloq-odobdan va'z aytgan. Uning qanday mohirona notiq bo'lganini qo'yidagi misollar orqali yana bir bor bilib olishimiz mumkin. Eron olimi Said Nafisiy Husayn Voiz nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida eslab, uning o'g'li Fahriddin Ali Safiyning "Latoyifut tavoyib" nomli asarida shunday voqeani keltiradi: "Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi ancha kechikib kelgan. Shu majlisda Abdurahmon Jomiy g'am bor ekan. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi: - Nechuk kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin? - Meni ma'zur tuting, ustod, - debdi G'iyosiddin, - kelayotgan edim, masjadi jome'da Husayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga maxliyo bo'lib qolibman – deb, javob berdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki Koshifiyning nutqi o'zining takrorlanmas va jozibadorligi bilan hammani o'ziga jalb qilgan. Uning so'z san'atidagi mahoratini sezgan Navoiy uni homiylikka oladi va ustozi Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan marsiyasini 1492-yil 8-noyabr kunida o'qib eshittirishni so'raydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida "O'zbekiston" Toshkent – 1997.
2. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomai Sultoniy. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 241-b.
3. Aparstu. Axloқи қабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.- Б.106.
4. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai sultoniy; Axloqi muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar M.Aminov, F.Xasanov. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B.198



<b>16.</b>	<b>Muhammad Adnan, Tajalla Qureshi</b> Necessity of mother tongue on elementary school level: the significance of punjabi language.	89
<b>17.</b>	<b>A.X.Boltaboyev</b> Talabalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda qalamtasvir fanining o'rni.	96
<b>18.</b>	<b>N.N.Jo'rayevich</b> Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ulug' ajdodlarimiz merosidan foydalanish metodikasi (husayn voiz koshifiy asarlari misolida).	102
<b>19.</b>	<b>A.X.Сатаров</b> Основы экономического и правового образования - залог успешного подключения студенческой молодёжи (будущих учителей) к предпринимательской деятельности.	108
<b>20.</b>	<b>Е.В.Домашова, Акчина Карина Михайловна</b> Социально-психологическая адаптация студентов-сирот в условиях обучения в высшем учебном заведении.	111
<b>21.</b>	<b>Н.Л.Райимжонова, А.Х.Сатаров</b> Психолого-педагогические аспекты формирования ценностного отношения к собственному здоровью у младших школьников.	116
<b>22.</b>	<b>Чертолыс Владислав Николаевич., Chertolys Vladislav Nikolaevich</b> Студенческое научное общество как площадка для развития лидерских качеств у будущих педагогов.	122
<b>23.</b>	<b>Н.В.Кергилова</b> Педагогические проекты как площадка для профессионального становления будущих специалистов.	127
<b>24.</b>	<b>О.К.Сазонова</b> Роль педагогического менеджмента в подготовке специалистов в системе современного образования.	135
<b>25.</b>	<b>Г.Ю.Лизунова, Таскина Ирина Анатольевна</b> Организация профилактики суицидального поведения молодежи.	139
<b>26.</b>	<b>Ф.Очилова</b> Семья и школа как основа формирования толерантного отношения к детям при привитии здоровых привычек.	145
<b>27.</b>	<b>О.А.Устинова</b> Площадка как место социокультурного объединения детей.	152
<b>28.</b>	<b>Е.В.Alimatov</b> Yoshlar tarbiyasida ma'naviyatning o'rni.	155
<b>29.</b>	<b>M.Z.Po'latova</b> Yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirishning huquqiy asoslari.	158



**"Kelajak o‘qituvchisi-kelajak bunyodkori" mavzusidagi II xalqaro ilmiy anjumani materiallari to‘plami. NamDPI 2024, 28-novabr.**



"*Kelajak o‘qituvchisi - kelajak bunyodkori*" mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-dekabr 2024-yildagi 12-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnomma № 12).

***Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.***

**Texnik muharrir: A.O‘rmonjonov**

**TASHKILIY QO‘MITA:**

**Javoxir Yuldashev** – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;

**Ramziddin Tursunov** – Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i;

**Azizbek O‘rmonjonov** - Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi, institut “Talabalar akademiyasi” lideri.

***"Kelajak o‘qituvchisi-kelajak bunyodkori" mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 1812 sahifadan iborat bo‘lib 392 ta ilmiy maqola hamda tezisdan tashkil topgan.***

***To‘plamning elektron holatini har qanday tartibda o‘zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgar hisoblanadi.***

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TALABALAR AKADEMIYASI**

**NAMANGAN 2024**